


## “TASDIQLAYMAN”



### Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra o'qishga qabul qilishning BAHOLASH MEZONI

#### **1. Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi:**

mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati  
va ahamiyati;

belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashdan asosiy maqsad;

belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishiga mos mehnat faoliyati davomida  
erishgan yutuq va natijalari;

belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasida bilim va kasbiy  
ko'nikmalarning mavjudligi.

*Har bir savolga 25 balldan ajratilib, jami to'plash mumkin bo'lgan eng  
yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.*

#### **2. Savollar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.**

**3. Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni  
yakunlangach, Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan qo'yilgan ballar  
hisoblab chiqiladi va Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan  
qaydnomaga kiritib boriladi.**

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan qaydnomaga asosan Suhbat  
komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi  
*55 balldan yuqori bo'lganda* abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga  
ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib  
eshittiriladi.

#### **4. Oliy ta'lim muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellatsiya komissiyasi tashkil etiladi.**

Apellatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24  
soat ichida qabul qilinadi va apellatsiya komissiyasi tomonidan murojaat

qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqiladi.

Apellatsiya komissiyasi tarkibiga qabul komissiyasi faoliyatida ishtirok etmagan oliy ta'lim muassasasi xodimlari orasidan komissiya raisi va to'rt nafar a'zo kiritiladi.

Abituriyent apellatsiyani ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

Apellatsiya komissiyasi abituriyentning apellatsiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi hamda uning qabul komissiyasi va abituriyentga yetkazilishini ta'minlaydi.

**Besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni  
kechki ta'lim shakliga suhbat asosida o'qishga  
qabul qilish bo'yicha mas'ul**



**Z.Sh.Shodiyeva**